

TA'LIM MUASSASALARIDA MEHNAT MUHOFAZASINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

Mamadaliyev Shuhrat Mashrabboevich

Namangan davlat texnika universiteti

katta o'qituvchisi

Valijonov G'anijon Rustam o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

Talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehnatni muhofaza qilish tushunchasi, uning huquqiy asoslari va ta'lim muassasalarida amaliy qo'llanilishi keng yoritilgan. Muallif mehnatni muhofaza qilish sohasidagi asosiy normativ hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, xalqaro konvensiyalar hamda vazirlik qarorlariga asoslanib, bu sohaning dolzarb jihatlarini tahlil qiladi. Maqolada xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, himoya vositalari bilan ta'minlash, o'quv mashg'ulotlari tashkil etish kabi chora-tadbirlar tizimi bayon etilgan. Mazkur maqola ta'lim muassasalarida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va mehnat muhofazasining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mehnatni muhofaza qilish, huquqiy asoslar, mehnat qonunchiligi, ta'lim muassasalarida xavfsizlik, xavfsizlik texnikasi, mehnat sharoitlarini baholash, yo'riqnomalar, himoya vositalari, pedagog xodimlar xavfsizligi, psixologik xavfsizlik.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ОХРАНЫ ТРУДА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Мамадалиев Шухрат Машираббоевич

Старший преподаватель Наманганского государственного технического университета

Валижанов Ганижон Рустам угли

Студент Наманганского государственного технического университета

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются понятие охраны труда, её правовые основы и практическое применение в образовательных учреждениях. Авторы анализируют актуальные аспекты в сфере охраны труда, опираясь на основные нормативные документы, включая Трудовой кодекс Республики Узбекистан, Закон «Об образовании», международные

конвенции и постановления министерств. В статье изложена система мер по созданию безопасных условий труда, обеспечению средствами индивидуальной защиты, организационным учебным занятиям. Данная работа направлена на формирование культуры безопасности в образовательных учреждениях и повышение эффективности охраны труда.

Ключевые слова: охрана труда, правовые основы, трудовое законодательство, безопасность в образовательных учреждениях, техника безопасности, оценка условий труда, инструкции, средства защиты, безопасность педагогических работников, психологическая безопасность, государственный контроль,

FEATURES OF OCCUPATIONAL SAFETY ORGANIZATION IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev

*Senior Lecturer at Namangan State
Technical University*

Ganiyjon Rustam ugli Valijonov

*Student at Namangan State
Technical University*

Abstract

This article provides a detailed examination of the concept of occupational safety, its legal foundations, and its practical implementation in educational institutions. The authors analyze current issues in the field of labor protection based on key regulatory documents, including the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Education", international conventions, and ministerial decrees. The article outlines a system of measures for creating safe working conditions, providing personal protective equipment, and organizing training sessions. This work aims to foster a culture of safety in educational institutions and improve the effectiveness of occupational safety measures.

Key words: occupational safety, legal foundations, labor legislation, safety in educational institutions, safety regulations, assessment of working conditions, instructions, protective equipment, safety of teaching staff, psychological safety, state control.

Mehnatni muhofaza qilish — bu ta'lim muassasalarida talaba va xodimlarning sog'lig'ini va xavfsizligini ta'minlash, mehnat jarayonida yuzaga

keladigan xavf-xatarlar va kasalliklardan himoya qilish maqsadida ko‘rilgan barcha chora-tadbirlar yig‘indisidir. Bunga quyidagilar kiradi:

- Ish joylaridagi xavfsiz sharoitlarni yaratish;
- Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘quvlar va ta’limlarni tashkil etish;
- Ishchilarni mehnat sharoitlariga moslashtirish, zaruriy himoya vositalari bilan ta’minlash.

Mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari bir qancha normativ hujjatlarga asoslanadi. O‘zbekistonda bu sohadagi asosiy hujjatlar quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi: Mehnat kodeksi mehnatni muhofaza qilishni ta’minlash bo‘yicha umumiy huquqiy norma va talablarni belgilaydi. Bu kodeksda ishchilarni himoya qilish, mehnat sharoitlari va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qoidalar o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari: Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qabul qilingan farmonlar va qarorlar mehnat muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, bu sohada qonun hujjatlarining amalga oshirilishini nazorat qiladi.

Vazirliklarning Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qarorlari: Davlat organlari tomonidan chiqarilgan maxsus qarorlar va mehnat xavfsizligi bo‘yicha normativ hujjatlar mehnat sharoitlari, ishchilarni himoya qilish bo‘yicha alohida qoidalarga asoslanadi.

Mahalliy farmoyishlar va hujjatlar: Mahalliy darajadagi **farmoyishlar** va hujjatlar, ayniqsa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xavfsizlik qoidalari, ishchi guruhlar va xodimlar uchun qo‘shimcha mehnatni muhofaza qilishni ta’minlaydi.

Mehnat muhofazasining me’yoriy-huquqiy bazasi

Ta’lim muassasalarida mehnat muhofazasini tashkil etish quyidagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi;
2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-son O‘zbekiston Respublikasining
Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni;

SanPiN va GOSTlar;

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligining qarorlari va buyruqlari;

Ta’lim muassasalarining ichki me’yoriy hujjatlari.

Ushbu hujjatlar mehnat muhofazasining umumiy tamoyillari va ta’lim
sohasidagi maxsus xavfsizlik talablarini belgilab beradi.

Ta’lim muassasasi rahbari mehnat muhofazasi tizimini tashkil etish va
uning faoliyati uchun javobgar hisoblanadi. Xodimlar soniga qarab, ta’lim
muassasasida xodimlar soni 50 nafardan ortiq bo‘lsa — mehnat muhofazasi
bo‘yicha mutaxassis tayinlanadi. Agar xodimlar soni 50 nafardan kamroq bo‘lsa
— tegishli tayyorgarlikka ega boshqa lavozimdagi shaxsga mehnat muhofazasi
bo‘yicha mas’uliyat yuklanadi.

Mehnati muhofazasi bo‘yicha mutaxassis asosiy vazifalar:

Mehnati muhofazasi bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
Lokal hujjatlarni (yo‘l-yo‘riqlar, nizomlar) ishlab chiqish;
Xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
Nazorat organlari bilan hamkorlik qilish.

Pedagogik va ma’muriy xodimlar quyidagi turdagi yo‘l-yo‘riqlarni
o‘tadilar:

- kirish yo‘l-yo‘rig‘i;
- ish joyidagi boshlang‘ich(dastlabki) yo‘l-yo‘riq;
- takroriy yo‘l-yo‘riq (kamida har 6 oyda bir marta o‘tkazilishi lozim);
- rejadan tashqari va maqsadli — ehtiyoj tug‘ilganda.

Talaba va o‘quvchilar ham maxsus kabinetlarda (fizika, kimyo,
texnologiya) va jismoniy tarbiya darslarida ishtirok etganda xavfsizlik texnikasi

bo'yicha yo'l-yo'riqlardan o'tadilar. Barcha yo'l-yo'riqlar maxsus jurnallarda qayd etiladi.

Ta'lim muassasalaridagi asosiy o'ziga xoslik — bolalar va o'smirlarning mavjudligidir. Shuning uchun ma'muriyat quyidagilarni ta'minlashi shart:

Sanitariya-gigiena talablariga rioya qilish;

Bino va uskunalarning texnik holatini nazorat qilish;

Rejali evakuatsiya mashqlarini tashkil etish;

Ta'lim muassasalarida mehnat muhofazasini tashkil etish — bu faqatgina qonun talablarini rasman bajarish emas, balki ta'lim jarayoni ishtirokchilari salomatligi va hayotini muhofaza qilishga qaratilgan kompleks tizimdir. Ta'lim muhitida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish — zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.:O'zbekiston,2023.

2.“Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.

3.O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi 30.04.2023 da kuchga kirgan

4.N.S.Baxriddinov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T.”IMPRESS MEDIA” 2024.

5.Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur

6.Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.